Ilmiy tadqiqotlar va ularning yechimlari jurnali
Aoka guvohnoma № 323759 ISSN: 3060-4818

INTEGRATSIYALASHUV JARAYONLARI VA YEVROPA ITTIFOQI: TARIXIY SHAKLLANISH VA ZAMONAVIY RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Namozova Zarina Anvar qizi
O'ZMU Siyosatshunoslik yo'nalishi
3-kurs talabasi
Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.20457269

Annotatsiya:
Mazkur mavzu Yevropa integratsiyasi jarayonining nazariy asoslari, tarixiy rivojlanish bosqichlari va zamonaviy tendensiyalarini kompleks tahlil qilishga bag'ishlangan. Unda integratsiyalashuv tushunchasi davlatlar o'rtasidagi iqtisodiy, siyosiy, huquqiy va madaniy aloqalarning chuqurlashuvi sifatida izohlanadi. Yevropa qit'asida integratsiya jarayonlarining shakllanishi, ayniqsa Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda boshlangan hamkorlik tashabbuslari va ularning bosqichma-bosqich rivojlanishi ilmiy jihatdan yoritiladi. Shuningdek, Yevropa Ittifoqi ning tashkil topishi, uning institutsional tuzilmasi, asosiy maqsad va vazifalari, a'zo davlatlar o'rtasidagi munosabatlar hamda yagona bozor, erkin harakatlanish kabi muhim tamoyillari tahlil qilinadi. Mavzuda Yevropa integratsiyasining xalqaro munosabatlar tizimidagi o'rni, global siyosiy va iqtisodiy jarayonlarga ta'siri hamda hozirgi kundagi muammolari va istiqbollari ham alohida e'tibor markazida bo'ladi.
Kalit so'zlar: Yevropa integratsiyasi, integratsiyalashuv, Yevropa Ittifoqi, siyosiy integratsiya, iqtisodiy integratsiya, globalizatsiya, mintaqaviy hamkorlik, yagona bozor, erkin harakatlanish, xalqaro munosabatlar.

Аннотация:
Данная тема посвящена комплексному анализу теоретических основ, исторических этапов развития и современных тенденций европейской интеграции. Понятие интеграции рассматривается как процесс углубления экономических, политических, правовых и культурных связей между государствами. Особое внимание уделяется формированию интеграционных процессов в Европе, особенно в послевоенный период, а также их поэтапному развитию. Также анализируется становление Европейский союз, его институциональная структура, основные цели и задачи, отношения между государствами-членами, а также ключевые принципы, такие как единый рынок и свобода передвижения. Рассматривается роль европейской интеграции в системе международных отношений, её влияние на глобальные политические и экономические процессы, а также современные проблемы и перспективы развития.
Ключевые слова: европейская интеграция, интеграция, Европейский союз, политическая интеграция, экономическая интеграция, глобализация, региональное сотрудничество, единый рынок, свобода передвижения, международные отношения.

Annotation:
This topic is devoted to a comprehensive analysis of the theoretical foundations, historical stages of development, and modern trends of European integration. The concept of integration is interpreted as a process of deepening economic, political, legal, and cultural relations between states. Particular attention is paid to the formation of integration processes in Europe, especially in the post-World War II period, and their gradual development. The study also examines the formation of the European Union, its institutional structure, main goals and objectives, relations among member states, and key principles such as the single market and freedom of movement. The role of European integration in the system of

international relations, its impact on global political and economic processes, as well as current challenges and future prospects are also analyzed.

Keywords: European integration, integration, European Union, political integration, economic integration, globalization, regional cooperation, single market, freedom of movement, international relations.

Yevropa Ittifoqi hozirgi kunda turli tarix, madaniyat, iqtisodiy

tuzilma va tashqi siyosat manfaatlariga ega bo‘lgan yigirma sakkizta davlatning ittifoqidir. (Buyuk Britaniya 2020-yil 31-yanvarda a’zolikdan chiqqan). Ta’kidlash lozimki, aynan Yevropadagi integratsion jarayon- larning rivojlanishi jahonning boshqa davlatlari o‘rtasidagi turli integratsion guruhlarning, tashkilotlarning tashkil topishiga turtki bo‘ldi. Shu jihatdan Yevropani integratsiyaning vatani deb atash mumkin. Yevropa Ittifoqining tashkil etilishi XX asrning eng muhim voqealaridan biri bo‘lib, Yevropada jamoat hayotida tub o‘zgarishlarni keltirib chiqardi. Yevropa Ittifoqi yagona siyosiy, iqtisodiy tuzilma sifatida shakllangunga qadar murakkab yo‘lni bosib o‘tdi va uning tarixiy asoslari mavjud.[1] Hozirgi Yevropa Ittifoqi tarixi o‘rganilganda aksariyat tadqiqotchilar uni XX asrning 50-yillari bilan bog‘laydilar yoki ikkinchi jahon urushidan keyingi davrdagi voqealarga urg‘u beradilar. Ammo Yevropani yagona “bir bayroq” ostida birlashtirish g‘oyasi ancha oldin paydo bo‘lgan. Tarixiy nuqtayi nazardan tahlil etganda Yevropani

birlashtirish g‘oyasini beshta muhim mafkuralar bilan bog‘lash mumkin.



Bularning har birini u yoki bu bosqichda yuksalishi integratsiyaning pragmatik vazifalari, talablari va qiyinchiliklari bilan belgilangan. Yuqoridagi mafkuralarga asoslanib, Yevropa integratsiyasining siyosiy, diniy, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy omillari mavjudligini ta’kidlash zarur. Tarixan integratsiyaning birinchi mafkurasi «Yevropa g‘oyasi» (yev- ropachilik) – o‘tmish va kelajakning

[1] F.A. Abdurahmonov . “Integratsiya va iqtisodiy globallashuv”-Toshkent-2024-36-37-b

umumiyligi hamda G‘arbiy Yevropa xalqlarining madaniy ustunligi g‘oyasi bo‘lgan. Bu yerda siyosiy integratsiya ko‘rinishi bo‘lib, u milliy, ommaviy va siyosiy madaniyat sohasidagi umumiy qadriyatlar hamda yagona jamoaga daxldorlik hissi darajasini ko‘rsatadi. O‘rta asrlarda Yevropada katolikning hayotni barcha jabhalarida hukmron bo‘lganligi va ushbu mintaqada kuch bilan teokratik Yevropa davlatini barpo etishga urinishi katolitsizm mafkurasining ko‘rinishi bo‘lgan. Zamonaviy Yevropa integratsiyasini tavsiflashda 1920-yillardagi federalizm mafkurasi asosiy Yevropani birlashtirish g‘oyasi hisoblanadi. 1920-30-yillarda Panevropa harakati tarafdorlari Rixard Kudenxov- Kalergi va Aristid Briand federalizm g‘oyasini ilgari suradilar[2]. Rixard Kudenxov-Kalergi o‘zining “Panyevropa manifesti”da barcha Yevropaning demokratik davlatlarini birlashtirishga chaqirib, bojxona chegaralarini yo‘q qilish, tovarlarning erkin harakatini yo‘lga qo‘yish, urushlarning oldini olish uchun hakamlik mexanizmini yaratishni taklif etadi. Davlat va huquq nazariyasiga ko‘ra davlatlarning shartnoma va qonuniy tartibga solingan birlashuvini ta’sis etishga asoslangan ittifoqi federatsiya deb ataladi.[3] Federalizm davlat hokimiyatini ikkita darajada federal markaz va unga tobe bo‘lgan subyektlar asosida amalga oshirishni nazarda tutadi.

Yevropa Ittifoqi shakllanishining me’yoriy-huquqiy bazasi

Hujjatning nomlanishi	Maqsadlar	Integratsiyadagi roli
Yevropa ko‘mir va po‘lat hamjamiyati tuzish to‘g‘risidagi shartnoma (YEKPT) 1951-yil	ko‘mir, temir rudasi, po‘lat, cho‘yan va maxsus po‘latning umumiy bozorini bosqichma-bosqich shakllantirish (YEKPT shartnomasi muddati 2002-yilda tugagan)	Kelajakdagi integratsiya jarayonlari uchun me’yoriy-huquqiy bazani yaratish
Rim shartnomasi 1957-yil	Yevropa Iqtisodiy Hamjamiyati (YEIH) va Atom energiyasi bo‘yicha Yevropa Hamjamiyatining (Yevroatom) tashkil etilishi	Iqtisodiy integratsiyaning birinchi bosqichi
Bryussel shartnomasi 1965-yil	Yevropa institutlarining vakolatlarini soddalashtirish	Millatlar usti organlari ta’sirining kuchayishi
Yagona Yevropa akti 1986-yil	Portugaliya va Ispaniyaning qo‘shilishiga tayyorgarlik ko‘rishda institutlarni isloh qilish va yagona bozorga tayyorgarlik ko‘rishda qarorlar qabul qilishni tezlashtirish	Iqtisodiy integratsiyasining yangi bosqichi, milliy oliy organga yangi vakolatlar berish
Maastrixt shartnomasi 1992-yil	Yevropa valuta ittifoqiga tayyorgarlik va siyosiy ittifoq elementlarini joriy etish (fuqarolik, umumiy ichki va tashqi siyosat)	Chiziqli integratsiya modelidagi bosqich
Amsterdam shartnomasi 1997-yil	Kelajakdagi a’zo davlatlarning azoligiga tayyorgarlik ko‘rish uchun Yevropa Ittifoqi institutlarini isloh qilish	Transchegaraviy-gorizontal integratsiyasining asosi
Nissa shartnomasi 2001-yil	Kelajakdagi a’zo davlatlarning a’zoligiga tayyorgarlik ko‘rish uchun Yevropa Ittifoqi institutlarini isloh qilish	Millatlar usti institutlarni takomillashtirish
Lissabon shartnomasi 2007-yil	Global muammolarni hal qilishda Yevropa Ittifoqi samaradorligini oshirish	Rasmiy muassasalar sonining ko‘payishi

[2] https://european-union.europa.eu/
[3] F.A. Abdurahmonov . “Integratsiya va iqtisodiy globallashuv”-Toshkent-2024-42-34-b

Urushdan keyingi “sovuq urush” holati, dunyoning ikkita lagerga ajralishi vaziyatida G‘arbiy Yevropa davlatlari bevosita AQSH bilan hamkorlikni rivojlan- tirdilar. Amalda shartnomalar Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlarini Yevropa integratsiyasi orbitasiga kiritilishiga zamin yaratdi. Ushbu davlatlarning Yevropa Ittifoqiga qo‘shilish imkoniyatlari to‘g‘risida qaror 1993-yil iyun oyida Kopengagenda bo‘lib o‘tgan Yevropa Ittifoqi sammiti tomonidan qabul qilindi. Shuningdek, Yevropa Kengashi ushbu sammitda a’zolikka nomzodlik bo‘yicha mezonlarni tasdiqladi (Kopenhagen mezonlari va talablari).[4]

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, Yevropa Ittifoqi zamonaviy dunyodagi eng muvaffaqiyatli va murakkab integratsion tuzilmalardan biri hisoblanadi. Uning shakllanishi tasodifiy emas, balki uzoq tarixiy rivojlanish, turli mafkuraviy qarashlar va global siyosiy-iqtisodiy jarayonlar natijasidir. Yevropani birlashtirish g‘oyasi dastlab nazariy darajada shakllangan bo‘lsa-da, keyinchalik amaliy zaruratga aylangan va davlatlararo hamkorlikning yangi modelini yuzaga keltirgan. Ayniqsa, Ikkinchi jahon urushidan keyingi davr Yevropa integratsiyasining burilish nuqtasi bo‘ldi. Urushning og‘ir oqibatlari – iqtisodiy tanazzul, infratuzilmaning vayron bo‘lishi va insoniy yo‘qotishlar – Yevropa davlatlarini o‘zaro raqobat o‘rniga hamkorlik qilishga majbur etdi. Shu tariqa, tinchlikni ta’minlash, iqtisodiyotni tiklash va kelajakda urushlarning oldini olish integratsiyaning asosiy maqsadiga aylandi.Yevropa integratsiyasi jarayonida mafkuraviy asoslar muhim rol o‘ynadi. Yevropeizm, federalizm, keynsianizm va multikulturalizm kabi g‘oyalar integratsiyaning turli bosqichlarida uning yo‘nalishini belgilab berdi. Ayniqsa, federalizm konsepsiyasi davlatlardan yuqori turuvchi institutlar yaratish orqali umumiy boshqaruv tizimini shakllantirishga xizmat qildi. Bu esa Yevropa Ittifoqini oddiy iqtisodiy hamkorlikdan siyosiy ittifoqqa aylanishiga zamin yaratdi.

Shuningdek, integratsiya jarayonida muhim tarixiy shaxslarning hissasi katta bo‘ldi. Xususan, Robert Schuman tomonidan ilgari surilgan tashabbuslar va Uinston Cherchillning Yevropani birlashtirish haqidagi g‘oyalari amaliy bosqichga o‘tishda muhim ahamiyat kasb etdi. Ularning tashabbuslari natijasida Yevropa ko‘mir va po‘lat birlashmasi va keyinchalik Yevropa iqtisodiy hamjamiyati tashkil etilib, integratsiyaning institutsional asoslari yaratildi. Vaqt o‘tishi bilan Yevropa integratsiyasi faqat iqtisodiy soha bilan cheklanib qolmay, balki siyosiy, huquqiy, ijtimoiy va madaniy yo‘nalishlarni ham qamrab oldi. Shengen shartnomasi orqali fuqarolarning erkin harakatlanishi ta’minlandi, yagona bozor shakllandi va umumiy qadriyatlar tizimi rivojlandi. Bu esa Yevropa xalqlari o‘rtasida o‘zaro ishonch va hamkorlikni mustahkamladi.

Biroq, Yevropa Ittifoqi rivojlanish jarayoni muammolarsiz kechmadi. Migratsiya masalalari, iqtisodiy nomutanosiblik, milliy manfaatlar to‘qnashuvi va ayrim davlatlarning ittifoqdan chiqishi (masalan, Brexit) kabi holatlar integratsiyaning murakkab va ziddiyatli jarayon ekanligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, multikulturalizm siyosati ham har doim kutilgan natijani bermagan va ayrim ijtimoiy ziddiyatlarga sabab bo‘lgan.Shunga qaramay, Yevropa Ittifoqi bugungi kunda global siyosatda, iqtisodiyotda va xalqaro munosabatlarda muhim o‘rin egallaydi. U nafaqat o‘z a’zo davlatlari uchun barqarorlik va farovonlikni ta’minlashga xizmat qilmoqda, balki boshqa mintaqalar uchun ham integratsiyaning samarali modeli sifatida namuna bo‘lib qolmoqda.Umuman olganda, Yevropa integratsiyasi tajribasi shuni ko‘rsatadiki, turli tarix, madaniyat va manfaatlarga ega davlatlar o‘zaro ishonch, hamkorlik va umumiy maqsadlar asosida birlashsa, yirik va barqaror siyosiy-iqtisodiy tuzilmani shakllantirish mumkin. Bu esa hozirgi globallashuv davrida boshqa mintaqalar uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

[4] F.A. Abdurahmonov . “Integratsiya va iqtisodiy globallashuv”-Toshkent-2024-47-b

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati :

1. F.A. Abdurahmonov . "Integratsiya va iqtisodiy globallashuv"-Toshkent-2024-47-b
2. 37.Байков А.А. "Интеграционные маршруты" Западно-Центральной Европы и Восточной Азии/ Международные процессы. – 2007. – Том 5, №3 (15). – стр. 4-17.
3. https://european-union.europa.eu/
4. https://www.worlddata.info/trade-agreements/nafta-freetrade
5. https://ec.europa.eu/eurostat/documents/2995521/15725179/2-18012023-AP-EN.pdf/e301db8f-984c-27e2-1245-199a89f37bca
6. https://weconomist.tsue.uz/media/publications/F-Abdurakhmonov-integration_and_globalization_XynyT66.pdf